ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA DIALEKTALIZM

Xalimjonova Sarvinoz Ilhomjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat
O‘zbek tili va dabiyoti universiteti filologiya
va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22273791

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning ayrim hikoyalari orqali adabiy tilning imkoniyatlarini ochuvchi sheva unsurlari aniqlanadi. Ularning badiiy matnda qanday uslubiy vazifa bajarishi va o‘rni tahlil qilinadi. Dialektalizmlar personaj xarakterini ochish va milliy kolorit yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lishi tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: Shukur Xolmirzayev, dialektalizm, adabiy til, milliy kolorit, sheva, dialektal so‘zlar, uslub, badiiy matn.

Badiiy matnda yozuvchi ma’lum hudud aholisigina tushunilishi mumkin bo‘lgan unsurlar – sheva so‘zlaridan foydalanishi asarga muayyan estetik vazifani yuklaydi. Olim Ma’rufjon Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Yozuvchilar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi”.[1] Shunday ekan, matnda dialektalizmlardan foydalanish qahramon nutqidagi qaysidir hududning til unsurlarini ko‘rsatish bilan birga, mahalliy koloritni o‘zida aks ettiradi. Asar mazmunida uslubiy bo‘yoqdorlik va reallikni orttiradi.

Dialektlarni lingvistik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ularning fonetik, leksik va grammatik jihatdan xoslanishini tasnif qilamiz. Fonetik dialektalizmlar, asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qatlab qo‘llash ko‘rinishlarida bo‘ladi. Masalan: 1.“**Toshkanniyam** olibdimi-a?” (T.Murod) *Toshkanniyam* so‘zida ayrim tovushlar tovush o‘zgarish hodisasiga yo‘liqqan: Aslida, adabiy til me’yorlariga muvofiq yoziladigan *Toshkentni ham* so‘zida fonetik dialektalizm hodisasi ro‘y bergan. 2. Enaxonlarning butun oilasi yoyilgan qopning tegrasida **juqari** uqalab o‘tirardilar”. (Cho‘lpon)[2] Bu yerda *Juqari* so‘zi esa jo‘xori so‘zining fonetik jihatdan o‘zgarganidir. Leksik dialektalizmlar adabiy tilda boshqa so‘z, ammo muayyan shevalarda bor so‘zlardir. Misol uchun: 1. “Enkayib qo‘lini oldinga **sermab** berdi”. (T.Murod) *Sermab* so‘zi qo‘lini ishora qilib silkitdi ma’nosini ifodalaydi. 2. “Elga **kadida** qatiq tutdi”. (T.Murod) *Kadi* adabiy tildagi qovoq so‘zining sinonimi sifatida ishlatiladi.[3] Badiiy adabiyotda qator yozuvchilarning asarlari orqali umumxalq tilining qator imkoniyatlarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Shukur Xolmirzayev asarlarida Surxandaryo shevasiga xos bo‘lgan so‘zlardan mahoratli foydalanib, personaj ruhiyatini haqqoniy yoritib bergan. Bundan tashqari ham yozuvchining aksariyat asarlarida ov, qishloq, tabiat, hayvonlar misolida surxon vohasining manzarasi, xalqi, turmush tarzini ko‘z oldimizda gavdalantira olamiz. Albatta, bu tasvirlar – mahalliy hudud haqidagi tasavvurlar asar tilida dialekt unsurlarni maqsadli boyitilganligidadir.

Shukur Xolmirzayevning ayrim hikoyalari orqali dialektlarning tavsifi bo‘yicha misol va ularning matn o‘rnidagi vazifalarini ko‘rib chiqamiz:

“Bahor havosi-da, bir sevalab o‘tar”, deb ketaverdim. Biroq sal o‘tmay yomg‘ir shunday quyib berdiki... Shunda turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan ***kamarcha*** *borligi yodimga tushdi.(“Notanish odam” hikoyasi)*[4]

“Kamarcha” — jar va g‘or yon bag‘ridagi kichik tog‘ pana joyi, g‘orcha.(leksik dialektalizm). “Sevalab” — yengil, maydalab yaomg‘ yog‘ishi (fonetik va leksik dialektalizm).

“Ovga borayotgan edim, ***havo aynidi****... badanimga yopishib qoldi.”*

“Havo aynidi” adabiy tilda ob-havo haroratining pasayishi bo‘lib, shevada shunday leksik dialektalizm bo‘lib qo‘llanilyapti. Ushbu hikoyaning boshqa o‘rnida:

—Yomg‘ir yog‘ishini bilmadingizmi?
— Qaydan bilay.
— Bulutni ko‘rib edingizmi?
— Ha.
— ***Gallamang****, ko‘rganingiz yo‘q.*

“Gallamang” so‘zi ham adabiy tilda boshqa so‘z, ya’ni “valdiramang”, “bekorchi gapni gapirmang” ma’nosidagi Surxon shevasiga oid leksik dialektal unsurdir.

*“****Isina bering?*** *Olovini minnat qilganimi!” Pidjakni kiyib, o‘rnimdan turdim.*

“Isina bering” fonetik dialektalizmga xos bo‘lib, “isinavering” so‘zining shevaga xos o‘zgarishidir.

"Yusuf degan bir tanishimiz bo‘lardi, uyga keldimi, lo‘labolishni ***o‘mroviga*** *tortib, shu dostonni o‘qishga boshlar edi*. (“O‘zbekning soddasi” hikoyasi)[5]

So‘z tahlili:

O‘mrov — adabiy tilda: ko‘krak qafasining yuqori qismi, bo‘yin osti suyagi va uning atrofi. Asosan, voha hududlarida qo‘llaniladigan sheva unsure bo‘lib, tahlilda leksik dialektalizm vazifasini bajargan.

*“****Berman ke, ulim, berman ke!”*** *— dedi otam.*

"Beri" ravishi shevada "berman" (beriga, beri tomonga) shaklida uchraydi; "kel" buyruq fe’lining oxiridagi l undoshi jonli so‘zlashuvda tushib qolgan (ke tarzida).

"Ulim" adabiy tildagi "O‘g‘lim" so‘zining fonetik varianti. Sheva va jonli so‘zlashuvda o‘ torayishi hamda sirg‘aluvchi g‘ tovushining tushib qolishi (eliziya) hodisasi yuz bergan (o‘g‘lim-ug‘lim-ulim).

Shukur Xolmirzayevning “O‘zbekning soddasi”, “Notanish odam” hikoyalarida uchrovchi dialektlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi nutqida dialektalizmlar personajlarning nutq xarakteri, soddaligini ochib bergan. Dialektal birliklar dialoglarga yana ham bo‘yoqdorlik berib, shu hududga mansublikni yaqqol ko‘rsatib bergan. Surxon vohasi va tog‘li hududlarga xos bo‘lgan maishiy-etnografik kolorit ham aynan hikoyalarda uchraydigan shevalar orqali boyigan. Umumiy olganda, Shukur Xolmirzayev sheva unsurlaridan mahorat bilan foydalangan, til nuqtai nazardan hayotiy, badiiy jihatdan esa ta’sirchan bo‘lishini ta’minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili – T. : Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 39b.

2. Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi – Toshkent: “Ishonchli Hamkor”, 2021. – 113b.
3. Sh. Sh. Yuldosheva., N.Jiyanova., S.Mahkamova. Badiiy matnda dialektalizm va okkazionalizmlar (Tog‘ay Murod asarlari misolida) // Science Time. – 2024 Vol.3, Issue2.
4. Xolmirzayev Sh. Notanish odam (hikoya). Ziyo.uz electron kutubxonasi. URL: https://ziyouz.com/.
5. Xolmirzayev Sh. O‘zbekning soddasi (hikoyalar to‘plami). Ziyo. uz electron kutubxonasi. URL: https://ziyouz.com/.